

Kirish. Ona tili nima?





Ona tilim – o‘zbek tili.



1-mashq. Rasmlarga qarang.



*O‘zbek tili –
mening ona tilim.*



*Mi lengua maternal
es el Español.*



中文是我的
母語

- Turli tillarda berilgan gaplarni o‘qiy oldingizmi? Ularni tushundingizmi? Javobingizni izohlang.
- Ona tilingiz bo‘lgan o‘zbek tilidagi gapni ko‘chiring.



Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

O‘zbek tili – mening ona tilim.
O‘zbek tili – men yashayotgan
O‘zbekiston Respublikasining
davlat tili.





2-mashq. She'rni ifodali o'qing.

Ona tilim

Ona tilim – yurak qa'rimdan
Mehr bo'lib sochilgan jarang.
Qulog'imga go'dak paytimdan,
Alla bo'lib singgan ohang.

Ona tilim – necha asrlar
Kurashida yenggan polvonim.
Necha ajdod, necha nasllar,
Suyib o'tgan turkiy zabonim.

Iroda Umarova



3-mashq. O'qing. Maqolni ko'chiring.

Tilingda bo'lsa **boling**,
Kulib turar iqboling.

- Maqoldagi *boling* so'ziga yaqin ma'noli so'z toping.



4-mashq. O'qing. Quyida berilgan so'zlardan mosini tanlab, gapni to'ldiring.

... – bu o'zbek xalqining ona tilidir.

Tanlash uchun so'zlar: *ingliz tili, yapon tili, rus tili, o'zbek tili, turk tili.*

- **Til** so'zi nutqda yana qanday ma'nolarda qo'llaniladi? Fikringizni izohlang.